

RASMIY VA NORASMIY TOPONIMLARNING PRAGMATIK OPPOZITSIYASI XUSUSIDA

Nasritdinov Ulug'bek O'lmas o'g'li

Samarqand davlat chet tillar instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21503159>

Annotatsiya: Mazkur maqolada rasmiy va norasmiy toponimlarning pragmatik oppozitsiyasi ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu ikki turdagi toponimlarning referensial xususiyatlari, nutqiy akt tabiati, yasash mexanizmlari hamda ularning o'zaro dinamik munosabati yoritilgan. Shuningdek, norasmiy toponimlarning rasmiylashuv jarayoni va uning til siyosati hamda sotsiolingvistika nuqtayi nazaridan ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: rasmiy toponim, norasmiy toponim, pragmatik oppozitsiya, referensiya, nutqiy akt, deklarativ akt, sotsiolingvistika, til siyosati, jamoaviy nomlash, onomastika.

Abstract. This article presents a comparative pragmatic analysis of the opposition between official and unofficial toponyms based on English and Uzbek language materials. It examines their referential functions, speech act characteristics, formation mechanisms, and dynamic interaction within the toponymic system. Particular attention is paid to the process of institutionalization of unofficial place names and its implications for language policy and sociolinguistic studies.

Keywords: official toponym, unofficial toponym, pragmatic opposition, reference, speech act, declarative act, sociolinguistics, language policy, collective naming, onomastics.

Аннотация: В статье проводится сравнительный прагматический анализ оппозиции официальных и неофициальных топонимов на материале английского и узбекского языков. Рассматриваются их референциальные особенности, природа речевых актов, механизмы образования и динамика взаимодействия. Особое внимание уделяется процессу институционализации неофициальных топонимов и его значению для языковой политики и социолингвистики.

Ключевые слова: официальный топоним, неофициальный топоним, прагматическая оппозиция, референция, речевой акт, декларативный акт, социолингвистика, языковая политика, коллективное именование, ономастика.

Har bir toponimik tizimda ikki parallel qatlam mavjud: hujjatlarda, xaritalarda va rasmiy nutqda qo'llanuvchi rasmiy nom hamda kundalik so'zlashuvda yashovchi norasmiy nom. Bu ikki qatlam bir-biriga zid emas, balki o'zaro to'ldiruvchi, dinamik munosabatda bo'lgan ikki referensiya rejimini tashkil etadi. Ularning pragmatik tabiatini, bir-biriga aylanish mexanizmini hamda bu jarayonning til siyosatiga ta'sirini tizimli tarzda yoritish mazkur maqolaning asosiy predmetini tashkil etadi.

Ushbu masalaning ilmiy ahamiyati ikki jihatda namoyon bo'ladi. Birinchidan, u nutqiy aktlar nazariyasining amaliy tatbiqiga, institutsional va spontan nomlash aktlarining farqlanishiga, konkret toponimik dalil beradi. Ikkinchidan, u amaliy ahamiyatga ega: til siyosati ishlab chiquvchilar, xaritograflar va davlat organlari uchun rasmiy va norasmiy toponimlar orasidagi munosabatni tushunish samarali til rejalashtirish siyosatini yuritish uchun zarurdir.

Mazkur maqolaning maqsadi rasmiy va norasmiy toponimlarning pragmatik oppozitsiyasini ikki referensiya rejimi sifatida asoslash, ularning nutqiy akt tabiatidagi farqini yoritish hamda ikki tizim orasidagi asimmetrik dinamik munosabatni, rasmiylashtirish jarayonini, tavsiflashdan iborat. Tadqiqot vazifalari: rasmiy va norasmiy toponimlarning referensiya rejimlarini aniqlashtirish; ularning nutqiy akt tabiati, deklarativ va spontan aktlar, o'rtasidagi farqni asoslash; norasmiy toponim yasallashining lisoniy mexanizmlarini tasniflash; ikki tizim orasidagi dinamik, asimmetrik munosabatni model shaklida tasvirlash; nihoyat, ushbu dinamikaning til siyosati amaliyotidagi oqibatlarini yoritish.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda ingliz va o'zbek toponimlarining rasmiy va norasmiy qo'llanish namunalari, rasmiy hujjatlar, xaritalar hamda kundalik nutq, publitsistik matn namunalari, asosida qiyosiy korpus shakllantirildi. Ikkinchi bosqichda har bir norasmiy toponim uning yasallash mexanizmi (qisqartirish, almashtirish, kesib olish) bo'yicha kodlandi. Uchinchi bosqichda rasmiy va norasmiy shakllar orasidagi tarixiy munosabat, qaysi yo'nalishda o'zgarish yuz berganligi, tahlil qilindi va ikki til natijalari qiyoslandi.

Rasmiy va norasmiy toponimlar oppozitsiyasi sotsionomastika doirasida keng o'rganilgan bo'lib, Xellelend uni jamoaviy o'zlikni anglashning muhim ko'rsatkichi sifatida talqin qiladi [1], Ayniala va Ostman esa norasmiy nomlashni "pastdan yuqoriga" yo'nalgan ijtimoiy amaliyot sifatida tavsiflaydi [2]. Nomlash aktining nazariy tabiati Ostinning deklarativ nutqiy aktlar nazariyasi [3] hamda Serlning umumiy nutqiy aktlar tasnifi [4] asosida yoritiladi. Kouts atoqli otlikni lisoniy shakl emas, referensiya usuli sifatida talqin qilib, rasmiy va norasmiy nomlarning bir xil pragmatik maqomga ega bo'lishi mumkinligini nazariy jihatdan asoslaydi [5].

Institutsional nomlashning ijtimoiy-mafkuraviy jihatlari Azaryahu [6] va Olderman [7] tomonidan xotira-toponimlari misolida yoritilgan, tanqidiy diskurs tahlili nuqtayi nazaridan esa Feyrklof rasmiy nomlashning ijtimoiy hokimiyat munosabatlari bilan bog'liqligini ko'rsatib bergan [8]. O'zbek tilshunosligida bu masalaga yaqin muammolar Safarov [9] va Hakimov [10] tomonidan pragmatiklingvistika doirasida yoritilgan. Shunga qaramay, rasmiy va norasmiy toponimlar orasidagi dinamik munosabatni, ularning bir-biriga aylanish mexanizmini, yagona model asosida tavsiflovchi hamda uni ingliz va o'zbek materialida qiyoslovchi maxsus tadqiqot amalga oshirilmagan. Aynan shu metodologik bo'shliq mazkur maqolaning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

Rasmiy va norasmiy toponimlar oppozitsiyasi pragmatik nuqtayi nazardan ikki xil referensiya rejimini ifodalaydi. Rasmiy toponim institutsional referensiyani ta'minlaydi: u hujjatda, xaritada, pochta manzilida qo'llanadi va uning maqomi huquqiy hujjat bilan mustahkamlangan. Norasmiy toponim esa jamoaviy identifikatsiyani ta'minlaydi: u faqat muayyan nutq jamoasi ichida to'liq tushuniladi va uning qo'llanishi so'zlovchining shu jamoaga mansubligini bildiradi.

Ingliz tilida bu oppozitsiya, asosan, urbanonimlarda va shahar-jamoa muhitida namoyon bo'ladi: rasmiy ko'cha yoki hudud nomi bilan bir qatorda jamoaviy qisqartma yoki laqab nom amal qiladi. O'zbek tilida esa oppozitsiya, ayniqsa, mahalla va guzar nomlarida yaqqol ko'rinadi: rasmiy hujjatda mahalla nomi bir xil bo'lsa, mahalliy nutqda u boshqacha yuritilishi mumkin.

Ikkala tilda ham ushbu oppozitsiya universal, izomorf xarakterga ega, u har qanday toponimik tizimning ajralmas qismidir.

Rasmiy va norasmiy toponimlar tub farqli nutqiy akt turlari natijasi hisoblanadi. Rasmiy toponim deklarativ nutqiy akt mahsuli bo'lib, u vakolat va institutsional sharoitni talab qiladi [3]: qarorni vakolatli organ qabul qilishi va uni rasmiy tarzda e'lon qilishi shart. Norasmiy toponim yaratish akti esa hech qanday institutsional vakolatni talab qilmaydi, u spontan, jamoaviy va muallifsiz kechadi, ya'ni nominatsiya aktining sof, institutsiyalashmagan ko'rinishi hisoblanadi.

Ushbu farq ikki tizimning shakllanish yo'nalishini ham belgilaydi. Rasmiy tizim yuqoridan pastga, institutdan jamoaga, yo'nalishda shakllanadi: qaror avval institutsional darajada qabul qilinadi, keyin jamoaga yetkaziladi. Norasmiy tizim esa pastdan yuqoriga, jamoadan institutga, yo'nalishda shakllanadi: nom avval jamoa ichida stixiyali tarzda paydo bo'ladi, keyin, ayrim hollarda, institutsional tan olinishga erishadi. Ushbu ikki qarama-qarshi yo'nalish toponimik tizimning ichki dinamikasini tushunish uchun asosiy kalit hisoblanadi.

Norasmiy toponimlarning yasallish usullari pragmatik jihatdan alohida qiziqish uyg'otadi. Ular, odatda, uch usul bilan hosil bo'ladi. Qisqartirish, rasmiy nomning bir qismini olib tashlash orqali amalga oshadi: uzun rasmiy shakl qisqa, tejamkor variantga aylanadi. Almashtirish, obyektning ko'zga tashlanadigan, ijtimoiy jihatdan ahamiyatli belgisiga ko'ra yangi, rasmiy nomdan farqli nom berishni bildiradi. Kesib olish (klipping), uzun birikmali nomdan faqat bitta komponentni ajratib, uni mustaqil identifikator sifatida qo'llashni anglatadi.

Har uch usul ikki tilda ham amal qiladi va ular umumiy nutq tejamkorligi tamoyiliga tayanadi: kundalik muloqotda uzun, rasmiy shaklni to'liq talaffuz qilish ortiqcha kognitiv va artikulyatsion xarajat talab qiladi, shu bois nutq jamoasi qisqaroq, tejamkorroq muqobil shaklni ishlab chiqadi. Ingliz tilida bunga misol sifatida uzun rasmiy nomlarning kundalik nutqda qisqartirilgan shaklda qo'llanishini, o'zbek tilida esa uzun rasmiy mahalla yoki muassasa nomlarining sheva va so'zlashuv nutqida qisqaroq, ko'pincha norasmiy shaxs yoki tarixiy belgi asosidagi nom bilan almashtirilishini keltirish mumkin. Diqqatga sazovorki, uchala mexanizm ham semantik jihatdan "iqtisod" tamoyiliga bo'ysunadi: yangi nom eski nomdan qisqaroq yoki uni idrok etish jihatidan yengilroq bo'ladi.

Rasmiy va norasmiy toponimlar orasidagi munosabat statik emas, balki dinamik, aylanma xarakterga ega. Bu munosabatning eng muhim xususiyati uning asimmetrikligidir: norasmiy nomning vaqt o'tishi bilan rasmiylashuvi keng tarqalgan hodisa, teskari jarayon, rasmiy nomning norasmiylashuvi yoki uning o'rnini butunlay norasmiy nom egallashi, esa ancha kam uchraydi.

Norasmiy nom, qoida bo'yicha, allaqachon nutq jamoasi tomonidan sinovdan o'tgan, qisqa, esda qolarli va amaliy jihatdan qulay bo'ladi, aynan shu xususiyatlar uni rasmiylashtirish uchun jozibali nomzodga aylantiradi. Rasmiy nom esa, aksincha, institutsional jarayon natijasi sifatida allaqachon "yuqori" maqomga ega, shu bois uning norasmiy maqomga "tushishi" uchun alohida ijtimoiy sabab zarur bo'ladi.

Norasmiy nomning rasmiylashuvi bir necha bosqichdan iborat jarayon sifatida tasvirlanishi mumkin. Birinchi bosqichda nom nutq jamoasi ichida stixiyali tarzda paydo bo'ladi va u dastlab faqat kichik ijtimoiy doirada qo'llanadi. Ikkinchi bosqichda nom nutq jamoasi doirasidan tashqariga chiqib, kengroq hududda yoki ommaviy axborot vositalarida qo'llanila

boshlaydi, bu esa uning “ko‘rinuvchanligini”, pragmatik potensialini, oshiradi. Uchinchi bosqichda vakolatli institut nomni rasmiy tan olish to‘g‘risida qaror qabul qiladi va uni deklarativ nutqiy akt orqali huquqiy maqomga ega qiladi. To‘rtinchi, yakuniy bosqichda nom rasmiy hujjatlar, xaritalar va davlat reyestrlariga kiritiladi.

Ushbu jarayonning muvaffaqiyatli yakunlanishi bir qator shartlarga bog‘liq: nomning yetarlicha keng tarqalganligi, uning institutsional me‘yorlarga mos kelishi hamda uning mafkuraviy jihatdan neytral yoki maqbul ekanligi. Agar norasmiy nom ushbu shartlarga javob bermasa, u rasmiylashuvga erisha olmasdan, faqat mezopragmatik sathda, nutq jamoasi doirasida, yashashda davom etadi. Bu holat aksariyat mikrotoponimlar va laqab nomlarga xosdir, ular hech qachon rasmiy maqom olmaydi, biroq nutq amaliyotida barqaror saqlanib qoladi.

Rasmiy nomning norasmiy maqomga “tushishi” yoki uning butunlay norasmiy nom bilan almashtirilishi nima uchun kam uchraydi, degan savolga bir necha izoh berish mumkin. Birinchidan, rasmiy nom institutsional qo‘llab-quvvatlovga ega: u davlat organlari, ta‘lim tizimi, ommaviy axborot vositalari tomonidan doimiy ravishda takrorlanadi, bu esa uning barqarorligini ta‘minlaydi. Ikkinchidan, rasmiy nomni o‘zgartirish yoki uni norasmiy holatga o‘tkazish uchun ham institutsional qaror talab qilinadi, bu jarayon o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi, balki alohida siyosiy yoki ma‘muriy sabab talab qiladi. Uchinchidan, nutq jamoasi odatda rasmiy nomni “to‘g‘ri”, norasmiy nomni esa “qo‘shimcha” variant sifatida idrok etadi, bu esa ierarxik ongni mustahkamlaydi va rasmiy shaklning ustunligini saqlaydi.

Shunga qaramay, teskari jarayonning kamdan-kam uchraydigan holatlari ham mavjud. Agar rasmiy nom nutq jamoasi tomonidan tildagi fonetik yoki semantik sabablarga ko‘ra qo‘pol yoki noqulay deb baholansa, u astasekin qo‘llanishdan chiqib, uning o‘rnini norasmiy variant egallashi mumkin. Bunday holatlar, odatda, uzoq muddat davomida, bir necha avlod davomida kuzatiladi va ular alohida diaxron tadqiqotni talab qiladi.

Norasmiy toponimlarning yaratilishi tilshunoslikda “jamoaviy ijodkorlik” deb ataladigan hodisaning yaqqol namunasidir: unda muayyan bitta muallif emas, balki butun nutq jamoasi asta-sekin, kollektiv tarzda yangi nomni shakllantiradi va uni sinovdan o‘tkazadi. Kundalik so‘zlashuv diskursida norasmiy toponimlar va ularning qisqartma shakllari yetakchilik qiladi. Aynan shu sohada toponimik ijodkorlik eng yuqori darajaga yetadi, ammo material yozma manbalarda deyarli qayd etilmagani bois u tilshunoslikda eng kam o‘rganilgan soha hisoblanadi.

Ushbu metodologik qiyinchilik jamoaviy ijodkorlikni tizimli tadqiq etish uchun dala tadqiqoti, sotsiolingvistik intervyu va og‘zaki nutq korpusini yaratishni talab qiladi. Norasmiy toponimlarning yozma manbalarda qayd etilmasligi, shuningdek, ularning tez o‘zgaruvchanligi bilan ham bog‘liq: bir avlod tomonidan yaratilgan norasmiy nom keyingi avlod nutqida allaqachon boshqa nom bilan almashgan bo‘lishi mumkin. Bu beqarorlik norasmiy toponimik qatlamni rasmiy qatlamdan farqli o‘laroq tarixiy hujjat sifatida emas, balki jonli, doimo yangilanib turuvchi lisoniy jarayon sifatida o‘rganishni taqozo etadi.

Rasmiy va norasmiy toponimlar orasidagi dinamik munosabat til siyosati uchun jiddiy amaliy muammo tug‘diradi: standartlashtirish zarurati bilan jamoaviy nutqiy amaliyotning erkinligi o‘rtasidagi ziddiyat. Bir tomondan, davlat va xalqaro institutlar toponimlarning bir xil, me‘yorlashtirilgan shaklda qo‘llanishini talab qiladi, chunki bu xaritografiya, pochta xizmati va

huquqiy hujjatlar uchun zarur. Ikkinchi tomondan, nutq jamoasi o'z tabiiy huquqi sifatida norasmiy nomlardan foydalanishda davom etadi va bu amaliyotni to'liq bartaraf etish deyarli mumkin emas.

Feyrklof ko'rsatib berganidek, rasmiy nomlash amaliyoti o'zida ijtimoiy hokimiyat munosabatlarini aks ettiradi [8]. Kim nomlash huquqiga ega ekanligi, o'z navbatida, kim jamiyatda institutsional kuchga ega ekanligini bildiradi. Norasmiy nomlash esa, aksincha, jamoaning institutsional nazoratdan tashqarida o'z ovozi ifodalash usuli hisoblanadi. Shu boisdan til siyosati ishlab chiquvchilar uchun oqilona yondashuv ikki tizimni bir-biriga qarshi qo'ymaslik, balki ularning parallel mavjudligini tan olib, rasmiy hujjatlarda me'yorlashtirilgan shaklni, norasmiy muloqotda esa jamoaviy shaklni erkin qoldirishdan iborat bo'lishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda ushbu ziddiyatni yumshatishning bir necha yo'li sinovdan o'tkazilgan: rasmiy reyestrda bir nechta "tan olingan muqobil nom"ni qayd etish, mahalliy nomlarni turistik va madaniy kontekstda rasman e'tirof etish, hamda til siyosatini ishlab chiqishda mahalliy jamoalar bilan maslahatlashish protsedurasini joriy etish. Bunday yondashuvlar toponimik standartlashtirishning yagona "to'g'ri" shaklni majburlash emas, balki ko'p qatlamli lisoniy voqelikni boshqarish vazifasi ekanini tan oladi. O'zbekistonda ham mahalla va norasmiy hudud nomlarining madaniy-tarixiy ahamiyatini rasmiy hujjatlarda qo'shimcha izoh sifatida aks ettirish amaliyoti ushbu yo'nalishdagi istiqbolli qadam bo'lishi mumkin.

Rasmiy va norasmiy nom orasidagi tanlov, mohiyatan, sotsiolingvistik registr tanlash hodisasi bilan bir xil mexanizmga tayanadi. So'zlovchi nutq holatiga, suhbatdoshning maqomiga, muloqot kanaliga, rasmiylik darajasiga, qarab rasmiy yoki norasmiy toponim shaklini tanlaydi. Rasmiy hujjatda yoki notanish shaxs bilan muloqotda rasmiy shakl afzal ko'riladi, o'z doirasida, norasmiy suhbatda esa jamoaviy shakl qo'llanadi. Bu hodisa toponimni oddiy leksik birlikdan farqli, ikki registrga ega maxsus til birligi sifatida talqin qilish imkonini beradi: aksariyat toponimlar uchun ikkita, rasmiy va norasmiy, "sinonim" shakl mavjud bo'lib, ular orasidagi tanlov ijtimoiy kontekst bilan belgilanadi.

Ushbu registr almashinuvi ikki tilda ham kuzatiladi, biroq uning ijtimoiy "narxi" farqli bo'lishi mumkin. Ayrim jamiyatlarda norasmiy nomni rasmiy hujjatda qo'llash qo'pol xato sifatida baholanadi, boshqalarida esa bunday chegaralanish yumshoqroq. Bu farq, o'z navbatida, jamiyatning rasmiylik va norasmiylik o'rtasidagi umumiy madaniy chegarasi bilan bog'liq bo'lib, u alohida sotsiolingvistik tadqiqot mavzusi bo'lishi mumkin.

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, rasmiy va norasmiy toponimlar ikki xil referensiya rejimini, institutsional va jamoaviy-identifikatsion, ifodalaydi hamda ular mos ravishda deklarativ va spontan nutqiy aktlar natijasi hisoblanadi. Norasmiy toponimlar qisqartirish, almashtirish va kesib olish mexanizmlari orqali yasaladi va bu jarayonlar umumiy nutq tejamkorligi tamoyiliga tayanadi. Ikki tizim orasidagi munosabat statik emas, balki asimmetrik dinamik xarakterga ega: norasmiy nomning rasmiylashuvi keng tarqalgan, teskari jarayon esa kam uchraydigan hodisadir.

Ushbu asimmetrik dinamika toponimik tizimning umumiy "demokratik" tabiatini aks ettiradi, norasmiy, jamoa ichida tug'ilgan nom institutsional tan olinishga erishish imkoniyatiga ega. Ayni paytda bu dinamika til siyosati uchun standartlashtirish va jamoaviy erkinlik o'rtasidagi ziddiyatni keltirib chiqaradi, buni hal etishning oqilona yo'li ikki tizimning parallel mavjudligini tan olishdan iborat. Taklif etilgan model sotsiolingvistika, til siyosati va shahar

onomastikasi tadqiqotlarida keyingi ishlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari rasmiy va norasmiy toponimlar ikki xil pragmatik referensiya rejimini ifodalashini ko'rsatdi. Rasmiy toponimlar institutsional, norasmiy toponimlar esa jamoaviy kommunikativ ehtiyoj asosida shakllanadi. Ular o'rtasidagi munosabat asimmetrik dinamik xarakterga ega bo'lib, norasmiy nomlarning rasmiylashuvi keng tarqalgan, teskari jarayon esa kam uchraydi. Taklif etilgan model toponimlarning pragmatik tabiatini chuqurroq anglash hamda til siyosati va sotsiolingvistika tadqiqotlarini rivojlantirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Helleland B. Place Names and Identities // Oslo Studies in Language. 2012 Vol. 4, №. 2. – P. 95-116.
2. Ainiala T– Östman J.-O. (eds.) Socio-onomastics: The Pragmatics of Names – Amsterdam: John Benjamins, 2017. – 231 p.
3. Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962. – 166 p.
4. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.
5. Coates R. A New Theory of Properhood // Names, 2006. – Vol. 54, №. 4. – P. 356-366.
6. Azaryahu M. The Power of Commemorative Street Names // Environment and Planning D: Society and Space. 1996. Vol. 14, №. 3. – P. 311-330.
7. Alderman D.H. Street Names and the Scaling of Memory // Area, 2003. Vol. 35, №. 2 – P. 163-173.
8. Fairclough N. Language and Power– London, New York: Longman, 1989– 259 p.
9. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2008. – 300 б.
10. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: “Академнашр”, 2013. – 176 б.
11. Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 420 p.
12. Van Dijk T.A. Discourse and Context: A Sociocognitive Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 267 p.
13. Бегматов Э. Ўзбек ономастикаси масалалари. – Тошкент: Фан, 2013. – 240 б.